

MUSIQIY TAFAKKUR TUSHUNCHASNING METODOLOGIK ASOSLARI

Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi

Musiqiy ta'lim va san'at mustaxassisligi 1-kurs magistranti

ORCID: 0009-0004-9429-144X

ANNOTATSIYA: *Maqolada tafakkur haqida , musiqiy tafakkur tushunchasi haqida tushuntirilgan. Aslida tafakkur insonlarni fikrlashini boyitadi va dunyoqarashini kengaytiradi. Tafakkurning turlari, musiqiy tafakkur haqida , tafakkur tushunchasining metodologik asoslari , musiqiy tafakkur metodologiyasining asosiy yo`nalishlari haqida yoritib berilgan.*

Kalit so`zlar: *Tafakkur, musiqiy tafakkur, metod, fenomenologik metod, metodologiya, amaliy qo`llanma, uslub, tasnif, jarayon, ijro etish, yaratuvchanlik.*

АННОТАЦИЯ: В статье объясняется понятие мышления. На самом деле мышление обогащает мышление людей и расширяет их мировоззрение. Изложены типы мышления, музыкального мышления, методологические основы понятия мышления, основные направления методологии музыкального мышления.

Ключевые слова: Мысление, музыкальное мышление, метод, феноменологический метод, методика, практическое руководство, метод, классификация, процесс, исполнение, творчество.

ANNOTATION: *The article explains the concept of thinking. In fact, thinking enriches people's thinking and broadens their worldview. It covers the types of thinking, musical thinking, the methodological foundations of the concept of thinking, and the main directions of the methodology of musical thinking.*

Keywords: *Thinking, musical thinking, method, phenomenological method, methodology, practical application, style, classification, process, performance, creativity.*

KIRISH

Tafakkur o`ylash , mulohaza yuritish demakdir. Muayyan bir masala yoki holatni chuqur anglash hamda tahlil qilish jarayoni ham hisoblanadi . Tafakkur ayniqsa, ilm-fan, falsafa va diniy qadryatlarda muhim hisoblanadi. Tafakkur sabab inson o`z tajribalarini va dunyoqarashini yangilaydi, ruhiy hamda aqliy o`sishga erishadi. Tafakkur har sohada insonni rivojlantiradi. Tafakkurning asosiy maqsadi- insonni aqilli, ongli va ma`naviy jihatdan yo`naltirishdir. Tafakkurning kengayishi insonni ham ma`nan , ham aqlan rivojlantiradi. Aql bilan qaror qabul

qilishni ham , diniy, dunyoviy bilimlarni o`zlashtirishda ham tafakkur juda katta ahamiyatga ega. Inson qanchalik tafakkurini , bilimini boyitsa ya`ni kengaytirsa shunchalik natijaga erishadi. Tafakkur insonni bilimli qiladi, aqlini rivojlantiradi. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O`zbekiston taraqqiyot strateiyasi kitobining 4-bo`limida ta’lim, ilm-fanga juda katta e’tiborini qaratgan.Maktablarda “vazir soati”, “tadbirkor va bankirlar sabog`i” kabi dars amaliyotlarini joriy qilish lozim . Ularda ijro organlari rahbarlari, salohiyatlari tadbirkorlar, malakali bank xodimlari dars o`tishlari kerak. Ushbu fikrlarni tafakkur qilib ko`rsak, o`quvchilar amalda o`zlarining kasbga bo`lgan qiziqishlarini rivojlantiradilar, tadbirkorlik, yaratuvchanlik , dunyoqarashning kengayishi uchun ijobjiy ta’sir ko`rsatadi. Inson qanchalik keng tafakkurga boy bo`lsa, keng fikr yuritsa , aqliy jihatdan yetuk bo`lsa – jamiyat shuncha rivojlanadi , ravnaq topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘rta asr buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobi (873-950)- Sharq musiqa ilmining asoschisining fikricha musiqadan olinadigan lazzat musiqiy uyg‘unlikning makonda yoyilishidan, pardalarning navbatma-navbat kelishidan deb biladi. Musiqada gap tovushning o‘zida emasligini, balki uni qanday chiqarish muhim ekanini aytadi, ya’ni bizda yoqimli yoki yoqimsiz sezgini tovushning o‘zi emas, balki uni paydo qilish usuli uyg`otadi. Musiqaning kelib chiqishini esa inson nutqining boyligi bilan bog‘laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag`rur so`zlayotganda qat’iy jaranglaydi. Musiqa inson kayfiyatiga taqliddir, deydi Abu Nasr Forobi .

Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, musiqaning rivojlanishi insonni va uning tafakkurini ham rivojlanishiga asos bo`la oladi. Musiqiy tafakkur inson onging eng murakkab va nozik qatlamlaridan biri bo`lib, musiqani qabul qilish, anglash, ifodalash, yaratish jarayonlarini o`z ichiga oladi. Bu tafakkur janri nafaqat estetik qoniqish, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Musiqiy tafakkur rivojlansa, musiqani tinglash, to`g`ri tahlil qilish, yaratish jarayonlari rivojlanadi.Musiqiy tafakkur-musiqa ta’limidagi intellektual faoliyatdir. U quyidagi asosiy turlarga bo`linadi:

Kompozitsion tafakkur. Bastakor yoki kompozitorning yangi musiqiy asar yaratish jaraonidagi fikrlash faoliyati.

- Ijrochi tafakkur. Ijrochining musiqiy asarni ifodalashdagi texnik va estetik yondashuvi.
- Tinglovchi tafakkur. Tinglovchining musiqiy asarni qabul qilish va tushunish jarayoni.

Musiqiy tafakkur o`zining individual va ijtimoiy xususiyatlariga ega. Individual jihatdan u insonning musiqiy didi, eshituv xotirasi, emotsiyonal

sezgirlingi va ijodiy qobiliyatiga bog`liq. Ijtimoiy tomondan esa musiqiy tafakkur insonning madaniy – milliy muhitda shakllanadigan musiqiy tajribasi, qadryatlar tizimi hamda estetik qarashlariga asoslanadi. Musiqiy tafakkur tushunchasining metodologik asoslari musiqani o`rganish, anglash, amaliyotda qo`llash hamda baholashda qo`llaniladigan yondashuvlarni va ilmiy prinsiplarni o`z chiga oladi. Bu asoslar musiqaning nazariyasi va amaliyotini , uning ijtimoiy , ma`naviy va madaniy o`lchovlarini hisobga olgan tarzda , musiqa bilan bog`liq bo`lgan tafakkurning qanday rivojlanishini anglashga yordam beradi . Musiqiy tafakkur — musiqani anglash, tushunish va yaratish jarayonida miya va ruhiy holatning faol ishlashi, shuningdek, musiqiy asarlarni ijro etish va uni tahlil qilish bilan bog`liq fikrlash jarayonidir. Musiqiy tafakkur musiqani nafaqat eshitish, balki uni tuzish, his etish, tahlil qilish va ijro etishda ham ro`l o`ynaydi.

Musiqiy tafakkurning ba'zi asosiy jihatlari:

1. Musiqiy analitik tafakkur: Bu musiqiy asarning tuzilishini, ritm va melodiya tarkibini,akkordlarni va boshqa musiqiy elementlarni tahlil qilishdir. Musiqiy tafakkur asarning ichki qurilishini tushunish va qanday qurilganligini anglash imkonini beradi.
2. Musiqiy ijro etish tafakkuri: Ijrochi musiqani qanday his qilishi va ifodalashi bilan bog`liq tafakkur. Bu jarayon musiqiy asarni texnik jihatdan to`g`ri o`ynash bilan birga, unga hissiy nuqtai nazardan yondashishni ham o`z ichiga oladi.
3. Musiqiy yaratuvchanlik: Musiqiy tafakkur yaratuvchanlik bilan chambarchas bog`liq. Kompozitorlar yangi asarlar yaratishda, musiqiy tafakkur yordamida o`z ijodiy g`oyalari va tuzilmalarini hayotga tadbiq etadilar.
4. Musiqiy eshitish va tasavvur qilish: Bu musiqiy tafakkurning yana bir muhim jihat bo`lib, bu orqali inson musiqani eshitishda yoki uni o`ylab tasavvur qilishda chuqur anglash qobiliyatiga ega bo`ladi.
5. Musiqiy emotsional tafakkur: Musiqa insonning hissiy holatini o`zgartirishga qodir bo`lgan kuchli vositadir. Musiqiy tafakkur orqali odam musiqaning his-tuyg`ularini va kayfiyatlarini anglab, ularni o`z ruhiy holatiga moslashtira oladi.

Musiqiy tafakkur insonning kreativlik, mantiqiy fikrlash va hissiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu tafakkur turi musiqiy bilimlarni o`rganishda va musiqiy jarayonlarni samarali boshqarishda muhim ro`l o`ynaydi.

Musiqiy tafakkur tushunchasining metodologik asoslari — bu musiqaning anglanishi, ijro etilishi va yaratilishi jarayonlarini o`rganishda foydalaniladigan asosiy ilmiy-izlanuvchi yondashuvlar va metodlardir. Musiqiy tafakkurni tahlil qilish va rivojlantirishda turli metodologik asoslar, usullar va tamoyillar

qo‘llaniladi. Ular musiqiy bilimlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va ijodiy jarayonlarni samarali boshqarishga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musiqiy tafakkurning metodologik asoslari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Fenomenologik yondashuv. Fenomenologiya — bu tafakkurni va inson tajribasini tushunish va o‘rganishga qaratilgan yondashuvdir. Musiqiy tafakkur fenomenologik nuqtai nazardan o‘rganilganda, musiqaning estetik va hissiy jihatlari, uni qabul qilish va anglash jarayoni asosiy o‘rinda bo‘ladi va bu yondashuv musiqaning ichki muhokamalarini, uning tinglovchi yoki ijrochi tomonidan qanday qabul qilinishini, hissiy ta’sirini tahlil qilishga imkon beradi.

2. Kognitiv yondashuv. Musiqiy tafakkur kognitiv psixologiya asosida ham tahlil qilinishi mumkin. Kognitiv yondashuv musiqaning miyaning qanday ishlash jarayonlari bilan bog‘liq ekanligini o‘rganadi. Bu jarayonda musiqaning ritmik, melodik va garmonik tuzilmalari, ularning xotira va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi. Musiqiy tafakkur kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga oladi, chunki musiqani tushunish va ijro etishda bevosita aql, xotira va tasavvur ishlaydi.

3. Struktural yondashuv. Strukturalizm musiqiy tafakkurni tuzilmaviy tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu metod musiqaning asosiy elementlari (ritm, melodiya, garmoniya,akkordlar, dinamika va boshqalar) orasidagi aloqalarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Musiqa asarining tuzilishi, uning bo‘limlari va struktural elementlari qanday ishlashi, ularni anglash va ijro etish jarayonida qanday ta’sir qilishi muhim ahamiyatga ega. Struktural yondashuv musiqiy tafakkurda tizimli va izchil yondashishni ta’minlaydi.

4. Musiqiy semiotik yondashuv. Musiqiy semiotika musiqaning belgilarini va ularning ma’nolarini o‘rganadi. Musiqa nafaqat tovushlar to‘plami, balki ular orqali inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi, ma’naviy va estetik ma’no tashuvchi belgilar tizimidir. Musiqiy tafakkur semiotik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, musiqaning har bir elementi (ritm, melodiya, ton,akkord) o‘zaro belgilar tizimida qanday ma’no yaratishi va tinglovchiga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi.

5. Psixologik yondashuv. Musiqiy tafakkurning psixologik asoslari musiqaning inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, xotiraga va emotsiyal holatga ta’sirini o‘rganadi. Psixologik nuqtai nazardan, musiqiy tafakkur va ijro etish jarayonlarida musiqaning insonning ruhiy va hissiy holatiga qanday ta’sir qilishi o‘rganiladi. Musiqa orqali insonlarning kayfiyatini, emotsiyalarini ifodalash va ularni boshqarish psixologik tafakkurda asosiy o‘rinda turadi.

6. Pedagogik yondashuv. Musiqiy tafakkur pedagogik metodologiyada o‘rganilganda, ta’lim va tarbiya jarayonida musiqiy bilimlarni va ko‘nikmalarini

o`rgatishning samarali usullari o`rganiladi. Pedagogik metodologiya musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim o`rin tutadi, chunki u musiqani o`rgatishda o`quvchilarni nafaqat texnik jihatdan, balki ijodiy va estetik jihatdan ham rivojlantirishga qaratilgan.

7. Multidimensional (ko`p o`lchovli) yondashuv. Musiqiy tafakkur ko`p o`lchovli yondashuv orqali o`rganilganda, musiqaning turli jihatlari (emotsional, estetik, kognitiv, ijtimoiy va boshqa) o`zaro bog`langan holda tahlil qilinadi. Bu yondashuv musiqiy tafakkurning bir nechta aspektlarini birlashtiradi va musiqaning inson hayotidagi roli, uning jamiyatdagi ta'siri haqida chuqurroq tushuncha beradi. Musiqiy tafakkur metodologiyasi musiqaning har bir jihatini , har bir turini chuqur tahlil qilish va musiqaning inson ruhiyatiga hamda jamiyatga ta'sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu metodlar orqali musiqa nafaqat texnik jihatdan , balki estetik hamda psixologik darajada ham to`liq anglanadi.

Metodologiya – har qanday ilmiy, amaliy, va sa`atshunoslik tadqiqotining asosiy elementidir. U tadqiqotning yo`nalishini, usullarini va yondashuvlarini aniqlaydi, ilmiy izlanishlar va amaliy jarayonlarda muvaffaqiyatga muhim vosita hisoblanadi. Metodologiyaning to`g`ri tanlanishi hamda amalda ishlashi ilmiy natijalarng aniqligini va ishonchlilagini ta'minlaydi.

Metodologiyaning asosiy maqsadi ilmiy ishni yoki tadqiqotni maqsadga muvofiq ravishda, tizimli va izchil tarzda amalga oshirishdir. Bu usullar nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy, pedagogik, iqtisodiy, texnologik va boshqa sohalarda ham qo`llaniladi.

Metodologiya quyidagi qismlardan iborat bo`lishi mumkin:

1. Nazariy asoslar — mavzuning nazariy tushunchalari va prinsiplari.
2. Tadqiqot usullari — ma'lumotlarni yig`ish, tahlil qilish, tasniflash va baholash usullari.
3. Amaliy qo`llanma — ushbu metodologiyaning qanday amalda qo`llanishi.
4. O`rganish jarayoni — ilmiy tadqiqotlar va tajriba orqali yangi bilimlarni olishning usuliyati.

Shuningdek, metodologiya tadqiqotning qaysi yo`nalishda o`tkazilishini, qanday vositalar yordamida o`rganish olib borilishini va natijalarni qanday tahlil qilishni belgilaydi.

XULOSA

Demak ushbu maqoladan shuni xulosa qilish mumkunki, musiqiy tafakkurning metodologik asoslari keng qamrovli bo`lib, u turli ilmiy yondashuvlarni birlashtiradi. Har bir metodologik asos musiqaning turli jihatlarini tahlil qilish va uni anglashda o`zining o`rni va ahamiyatiga ega. Musiqiy tafakkurni o`rganish va

rivojlantirishda yuqoridagi metodologiyalarni birlgilikda qo'llash, musiqaning chuqurroq tushunilishi va insonning ijodiy potentsialini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqiy tafakkur insonning kreativlik, mantiqiy fikrlash va hissiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu tafakkur turi musiqiy bilimlarni o'rganishda va musiqiy jarayonlarni samarali boshqarishda muhim ro'l o`ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev.SH.M - Yangi O'zbekiston -taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent- 2022. 225-bet
2. Шокиров Т.Н. АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ // ORIENSS. 2022. №10-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-musi-a-ilmiga-shgan-issasi>.
3. Mahmudova. S.A. Musiqiy madaniyatni shakillantirishda pedagogik tizimning ilmiy-nazariy asoslari.O`quv uslubiy qo'llanma. Farg`ona-2023.
4. Musiqa va tarbiya . Alijon Xasanov. Toshent "O'qituvchi" 1993.
5. Yo`ldashev F.A , Yo`ldasheva M.B . Musiqi pedagogika va psixologiya Farg`ona – 2024.
6. Murodova .D. Musiqiy ong va tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. O`quv qo'llanma, 2021-yil 13 bet.
- 7.Xasanov .A .Musiqa va tarbiya. Toshkent. O'qituvchi. 1993.
- 8.Pedagogika . Xasanboyev .J , To`raqulov .X.A, Alqarov. I.SH, Usmonov. N.O`. Darslik , Toshkent -2020.
- 9.Farobiy (Hayoti va ilmiy merosi) .Hayrullaev .M.M. Toshkent. O'zbekiston 1991.
- 10.Intenet sayti: Ziyonet, Wikipediya